



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI

2019-yil 1-iyul holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot




2019-yil 1-iyul holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-iyun oylarida Respublikamizda 56,1 mingtaga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 26,7 mingtaga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 67,9 mingta (21,1 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 389,2 mingtani tashkil etgan.






Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-iyul holatiga 389,2 mingta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 19,0 %ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 24,5 % savdo, 17,8 % sanoat, 8,7 % qurilish, 7,4 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,0 % tashish va saqlash, 2,1 % axborot va aloqa, 1,9 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 27,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, ming birlik		01.07.2019 yil	
	01.07.2018 yil	01.07.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	321,3	389,2	121,1	100
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	24,5	28,9	118,2	7,4
Sanoat	55,1	69,4	126,0	17,8
Qurilish	28,2	33,9	120,2	8,7
Savdo	71,6	95,2	132,9	24,5
Tashish va saqlash	13,1	15,5	118,2	4,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	19,7	24,9	126,6	6,4
Axborot va aloqa	7,0	8,0	113,4	2,1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	6,5	7,6	116,6	1,9
Boshqa turlari	95,6	105,8	110,7	27,2

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Toshkent shahri (81 081 ta), Toshkent (40 585 ta), Farg'ona (34 071 ta) va Andijon (31 968 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Sirdaryo (12 510 ta), Navoiy (14 123 ta) hamda Jizzax (17 185 ta) viloyatlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 371,9 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 65,6 mingta (21,4 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 24,4 % savdo, 17,9 % sanoat, 8,7 % qurilish, 7,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,0 % tashish va saqlash, 2,0 % axborot va aloqa, 2,0 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 27,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Toshkent shahri (78 345 ta), Toshkent (35 051 ta), Farg'ona (33 604 ta) Andijon (30 617 ta) va Samarqand (29 415 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Sirdaryo (11 722 ta), Navoiy (13 985 ta) hamda Jizzax (16 405 ta) viloyatlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-iyun oylarida 56 127 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 1,9 martaba ko'pdir.


Yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Toshkent shahri (11 126 ta), Toshkent (5 413 ta), Samarqand (5 039 ta) va Farg'ona (4 788 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Sirdaryo (1 584 ta), Qoraqalpog'iston Respublikasi (2 397 ta) hamda Jizzax (2 450 ta) viloyatlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2019-yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (21 161 ta), sanoat (12 264 ta), qurilish (5 293 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (4 186 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (732 ta), axborot va aloqa (910 ta) hamda tashish va saqlash (1 697 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2019-yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tijorat korxonalarini

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-iyul holatiga 312,0 mingta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 82,0 mingta, oilaviy korxonalar - 22,0 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 201,2 mingta va boshqalar 6,8 mingtani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Mas'uliyati cheklangan jamiyati



Xususiy korxonona



Oilaviy korxonona



Unitar korxonona



Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar


2019-yil 1-iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 9 014 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 720 taga yoki 43,2 %ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-iyul holatiga xorijiy kapital ishtirokida 9 014 ta korxonona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu korxonona va tashkilotlarning eng yuqorisi Toshkent shahri (5 427 ta), Toshkent (987 ta), Samarqand (465 ta) va Farg'ona (348 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari Xorazm (111 ta), Sirdaryo (129 ta) viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasiga (135 ta) to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 4 618 tasi qo'shma korxonalar, 4 396 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda



Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning faollik darajasi, %



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
O'zbekiston Respublikasi	9 014	100
Qoraqalpog'iston Respublikasi	135	1,5
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	260	2,9
Buxoro	223	2,5
Jizzax	164	1,8
Qashqadaryo	151	1,7
Navoiy	166	1,8
Namangan	182	2,0
Samarqand	465	5,2
Surxondaryo	266	3,0
Sirdaryo	129	1,4
Toshkent	987	10,9
Farg'ona	348	3,9
Xorazm	111	1,2
Toshkent sh.	5427	60,2

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-iyun oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 1 715 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 752 taga ko'paygan.

Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar asosiy qismi Toshkent shahar (926 ta yoki jamidagi ulushi 54,0 %), Toshkent viloyati (150 ta yoki 8,7 %) va Surxondaryo viloyatlari (92 ta yoki 5,4 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Qoraqalpog'iston Respublikasi (20 ta yoki 1,2 %), Sirdaryo viloyati (26 ta yoki 1,5 %) va Xorazm viloyati (38 ta yoki 2,2 %) hissalariga to'g'ri keladi.


**2019-yilning yanvar-iyun oylarida
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, birlikda**



Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 251 ta, Turkiya Respublikasi - 231 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 289 ta, Qozog'iston Respublikasi - 179 ta va Koreya Respublikasi - 115 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-iyun oylarida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (527 ta), savdo (501 ta), qurilish (195 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (144 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (29 ta), axborot va aloqada (38 ta) hamda tashish va saqlashda (42 ta) tashkil etgan.


2019-yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan
xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-iyul holatiga Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 309,7 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-iyul holatiga qaraganda 25,0 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 68,8 mingtasi (22,2 %) Toshkent shahri, 29,3 mingtasi (9,5 %) Toshkent, 27,7 mingtasi (8,9 %) Farg'ona hamda 25,7 mingtasi (8,3 %) Andijon viloyatlari hissalariga to'g'ri keladi.


**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning
hududlar kesimida jamidagi ulushi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 309,7 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 90,2 mingtasi (29,1 %) - savdo, 66,0 mingtasi (21,3 %) - sanoat, 32,2 mingtasi (10,4 %) - qurilish, 26,4 mingtasi (8,6 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 23,3 mingtasi (7,5 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 14,7 mingtasi (4,7 %) - tashish va saqlash, 7,3 mingtasi (2,4 %) - axborot va aloqa sohasi, 5,9 mingtasi (1,9 %) - sog'liqni

saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 43,7 mingtasi (14,1 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-iyun oylarida 54,0 mingdan ziyod kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,1 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Toshkent shahri (10 763 ta), Toshkent (5 229 ta), Samarqand (4 806 ta) va Farg'ona viloyatlari (4 622 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Sirdaryo (1 524 ta), Qoraqalpog'iston Respublikasi (2 306 ta) hamda Jizzax (2 326 ta) viloyatlarida tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (21 143 ta), sanoatda (12 245 ta), qurilishda (5 283 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (4 153 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (643 ta), axborot va aloqada (904 ta) hamda tashish va saqlashda (1 696 ta) tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-iyul holatiga 22 908 tani tashkil etib, ulardan 22 043 tasi yoki 96,2 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 61,7 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 35,7 % yoki 7 869 tasi sanoat, 21,3 % yoki 4 691 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 20,5 % yoki 4 518 tasi savdo, 10,4 % yoki 2 299 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,1 % yoki 236 tasi tashish va saqlash, 1,0 % yoki 220 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,0 % yoki 211 tasi qurilish, 0,9 % yoki 205 tasi axborot va aloqa hamda 8,1 % yoki 1 794 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
O'zbekiston Respublikasi	6 861	100
Qoraqalpog'iston Respublikasi	258	3,8
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	100	1,4
Buxoro	494	7,2
Jizzax	174	2,5
Qashqadaryo	347	5,1
Navoiy	1 084	15,8
Namangan	121	1,8
Samarqand	1 261	18,4
Surxondaryo	277	4,0
Sirdaryo	61	0,9
Toshkent	542	7,9
Farg'ona	768	11,2
Xorazm	907	13,2
Toshkent sh.	467	6,8

2019-yil yanvar-iyun oylarida 6,9 mingga yaqin oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 3,1 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Samarqand (1 261 ta), Navoiy (1 084 ta), Xorazm (907 ta) va Farg'ona viloyatlari (768 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Sirdaryo

(61 ta), Andijon (100 ta) hamda Namangan (121 ta) viloyatlarida tashkil etilgan.

2019-yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 34,4 % yoki 2 357 tasi sanoat, 28,5 % yoki 1 956 tasi savdo, 19,5 % yoki 1 340 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 10,4 % yoki 712 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,8 % yoki 53 tasi qurilish, 0,7 % yoki 51 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,7 % yoki 50 tasi tashish va saqlash, 0,7 % yoki 46 tasi axborot va aloqa hamda 4,3 % yoki 296 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Statistik registrlarni yuritish va tizimli
xizmat ko'rsatish boshqarmasi**
Tel.:71-230-80-90 (91)